A.K.ISHONKULOV

JISMONIY TARBIYA FANIDAN INTERFAOL TOPSHIRIQLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

USLUBIY QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BOʻYICHA MUTAXASSISLARNI ILMIY-METODIK TA'MINLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI SAMARQAND FILIALI

JISMONIY TARBIYA FANIDAN INTERFAOL TOPSHIRIQLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

USLUBIY QO'LLANMA

"QAMAR MEDIA" NASHRIYOTI TOSHKENT - 2021

Tuzuvchi muallif: A.K.Ishonkulov

Jismoniy tarbiya fanidan interfaol topshiriqlarni yaratish texnologiyasi. Uslubiy qoʻllanma. Toshkent: "Qamar media" nashriyoti. 2021-yil. 44 bet.

Mazkur uslubiy qoʻllanmada ta'lim jarayonida interfaol metodlar, jismoniy tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari, iSpring Suite dasturi yordamida jismoniy tarbiya fani boʻyicha interfaol topshiriqlarni yaratish texnologiyalari haqida soʻz yuritilgan.

Taqrizchilar:

Q. T. Xoliqov

Samarqand VXTXQTMOHM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri, f.m.f.n., dotsent

A.Abdumannotov

Turizm va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni ilmiymetodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Samarqand filiali "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

Mazkur uslubiy qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashining 2021-yil 2-iyundagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

> © A.Ishonkulov © "Qamar media" nashriyoti

KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: «Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy ustunlari boʻlib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yoʻlida yoshlarimiz oʻz oldiga katta marralarni qoʻyib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama koʻmak berish — barchamiz uchun eng ustuvor vazifa boʻlishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini roʻyobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda "Yangi Oʻzbekiston — maktab ostonasidan, ta'limtarbiya tizimidan boshlanadi", degan gʻoya asosida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshiramiz".

Haqiqatan ham jismoniy sogʻlom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrga ega boʻlgan barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda shubhasiz, jismoniy tarbiya oʻqituvchilarning ham oʻz oʻrni bor.

Mamlakatimizda taraqqiyotining barcha sohalarida, jumladan ta'lim sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'limning barcha boʻgʻinlarida axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bugungi kunda oʻquvchi yoshlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga boʻlgan munosabatlari tubdan oʻzgardi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, jismoniy tarbiya va sportga oid tayyorlangan videoroliklar, animatsiyalar, taqdimotlar, koʻrgazmali materiallar, multimedia mahsulotlari dars va mashgʻulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Uslubiy qoʻllanmada interfaol ta'lim texnologiyalari, jismoniy tarbiya darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishning afzalliklari, jismoniy tarbiya fanidan interfaol topshiriqlarni yaratish texnologiyalari va ularning dasturiy ta'minoti bayon qilingan.

Ushbu uslubiy qoʻllanmada umumiy oʻrta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini oʻtkazishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, oʻziga xos jihatlari, uslublari oʻz ifodasini topgan. Uslubiy qoʻllanmadan umumiy oʻrta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya oʻqituvchilari, trener-oʻqituvchilar, magistrlar, tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

I BOB. INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

1.1. Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi oʻrni va imkoniyatlari

"Interfaol" tushunchasi inglizcha "interact" soʻzidan olingan boʻlib, "Inter"- birgalikda, "akt"-"harakat qilish" degan ma'nolarni bildiradi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi bilimlarni oshirish orgali oʻquvchilarning oʻrtasidagi faollikni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qoʻllash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus koʻrsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat boʻlib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda oʻziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yoʻnalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan oʻqituvchilari dars mashgʻulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qoʻllash natijasida oʻquvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, oʻz fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sogʻlom muloqot, munozara, bahs olib borish koʻnikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol mashgʻulot turlari koʻp boʻlib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda koʻzda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik koʻriladi. Interfaol mashgʻulotda ishtirok etish uchun oʻquvchilarning tayyorliklariga oʻziga xos talablar qoʻyiladi, bular mashgʻulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni oʻzlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, oʻzaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, oʻz fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish koʻnikmalari va boshqalardan iborat.

Mashgʻulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni toʻgʻri tanlash, tayyorlash hamda mashgʻulot oʻtkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan boʻlishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida oʻziga xos farqlar mavjud boʻlib, har bir oʻqituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni oʻtkazish usullarini tanlashda toʻgʻri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, koʻnikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qoʻllash mashgʻulotlarida hamda oʻquv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu boʻyicha mashgʻulot uchun eng maqsadga muvofiq boʻlgan interfaol yoki boshqa metodlarni toʻgʻri tanlash nazarda tutiladi.

Toʻgʻri tanlangan metodlarni qoʻllash mashgʻulotning qiziqarli va samarali boʻlishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

- 1. Interfaol so'zi qanday ma'noni anglatadi?
- 2. Interfaol metodlarning ishtirokchilari kimlar?
- 3. Interfaol metodlarning asosiy mezonlarini sanab bering
- 4. Interfaol metodlar an'anaviy metodlarga nisbatan qanday afzalliklarga ega?

1.2. Jismoniy tarbiya darslarida faol va interfaol oʻqitish usullaridan foydalanish

Pedagogikada oʻqitish usullarining koʻplab tasniflari mavjud.

Oʻqitishning faol usullari — bu oʻquv jarayonini jadallashtirishga imkon beradigan, oʻquvchini unda ijodiy ishtirok etishga undaydigan usullar. Oʻqitishning faol usullarining vazifasi oʻquvchining individual xususiyatlari va qobiliyatlarini aniqlash asosida uning shaxsini rivojlantirish va oʻz-oʻzini rivojlantirishni ta'minlashdir. Ta'limning faol usullari oʻquvchilarning fikrlash tarzini rivojlantirishga imkon beradi; muammolarni hal qilishda ularning ishtirokini ragʻbatlantirish; nafaqat bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, balki shu bilan birga amaliy koʻnikma va malakalarni rivojlantirish. Faol ta'lim usullari — bu oʻquvchilarning oʻquv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullarining toʻplami boʻlib, ular quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ✓ oʻquvchi tomonidan qarorlarni mustaqil ishlab chiqish;
- ✓ oʻquvchilarning oʻquv jarayoniga yuqori darajada jalb qilinishi;
- ✓ koʻnikma va malakalarni rivojlantirish yoki egallashga asosiy e'tibor;
- ✓ oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasidagi aloqalarni doimiy ravishda qayta yangilab borish hamda oʻquvchining mustaqil faoliyatini nazorat qilish.

Sinfda oʻquvchilarning faol bilim faoliyatini tashkil etish uchun faol ta'lim usullarining maqbul kombinatsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu usullarni tanlash quyidagilarni oʻz ichiga olgan algoritmga muvofiq amalga oshirilishi mumkin: oʻquv materialining mazmunini tahlil qilish, dars maqsadlarini aniqlash. Oʻqitish oʻquvchining maksimal imkoniyatlari darajasiga yaqinlashishi kerak: muvaffaqiyat hissi sezilarli qiyinchiliklarni yengib oʻtganligini anglash orqali hosil boʻladi. Shuning uchun har bir dars uchun oʻquvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual topshiriqlarni sinchkovlik bilan tanlash kerak.

Interfaol usul — bu oʻquvchilarning nafaqat oʻqituvchi bilan, balki birbiri bilan yanada kengroq oʻzaro munosabatlariga va oʻquv jarayonida oʻquvchilar faoliyatining ustunligiga qaratilgan oʻzaro ta'sir shaklidir. Bundan kelib chiqadiki, interfaol ta'limning asosiy xususiyati shundaki, oʻquv jarayoni qoʻshma tadbirlarda amalga oshiriladi va barcha turdagi guruh shakllarini interfaol ta'lim shakllariga kiritish mumkin. Bunga oʻqitishning guruhli usuli ham kiradi, oʻquv faoliyatini bunday shakda tashkil etishda bir kishi hammaga oʻrgatadi, hamma har bir kishiga oʻrgatadi. O'qitishning interfaol vositalarining asosiy vazifalari: o'qitishning interfaol xususiyatini ta'minlash, o'quv materialining monologik taqdimotini istisno qilish; mavjud manbalardan mustaqil ravishda oʻquvchilar tomonidan olinishi mumkin boʻlgan ma'lumotlarning takrorlanishini istisno qilish; turli shakllarda oʻquvchilarning kompetensiyalarini kommunikativ rivojlantirishga koʻmaklashish. Ta'limning interfaol metodlariga bilimlarni olish va qayta ishlashning faol jarayoniga jalb qilishni targʻib qiluvchi usullar kiradi.

Jismoniy tarbiya darslarida interfaol usullardan foydalanish:

- ✓ oʻquvchilarning qiziqishini uygʻotish;
- ✓ har kimning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ragʻbatlantirish;
- ✓ har bir oʻquvchining hissiyotlariga murojaat qilish;
- ✓ oʻquv materialini samarali oʻzlashtirishga hissa qoʻshish;
- ✓ oʻquvchilarga koʻp qirrali ta'sir koʻrsatishi;
- ✓ teskari aloqa (auditoriyaning javobi) bilan ta'minlash;
- ✓ oʻquvchilarning fikrlari va munosabatlarini shakllantirish;
- ✓ hayotiy koʻnikmalarni shakllantirish;
- ✓ xatti-harakatlarning oʻzgarishiga hissa qoʻshish.

Jismoniy tarbiya darslarida interfaol usullarni qoʻllashning quyidagi yondashuvlaridan foydalanish mumkin:

- ✓ ijodiy vazifalar;
- ✓ kichik guruhlarda ishlash;
- ✓ ta'limiy o'yinlar (rolli o'yinlar, taqlid qilish, ishbilarmonlik o'yinlari);
- ✓ ijtimoiy resurslaridan foydalanish (mutaxassislarni taklif qilish);
- ✓ ijtimoiy loyihalar va boshqa sinfdan tashqari oʻqitish usullari (tanlovlar, intervyular, filmlar);
- ✓ yangi materialni oʻrganish va mustahkamlash (interaktiv ma'ruza, koʻrgazmali qurollar, video va audio materiallar bilan ishlash, "oʻquvchi oʻqituvchi sifatida", "hamma hammaga oʻrgatadi", mozaika, savollardan foydalanish, Suqrot dialogi);
- ✓ treninglar.

Nazorat savollari:

- 1. Dars jarayonini tashkil etishning qanday shakllarini bilasiz?
- 2. Faol va interfaol metodlarning afzalliklarini sanab bering
- 3. Jismoniy tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish qanday samara beradi?
- 4. Jismoniy tarbiya darslarida interfaol usullarni qoʻllashda qanday yondashuvlardan foydalanish mumkin?

II. BOB. JISMONIY TARBIYA FANIDAN INTERFAOL TOPSHIRIQLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

2.1. iSpringSuite dasturi haqida umumiy ma'lumotlar

iSpring Suite dasturi elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishga mo'ljallangan dastur bo'lib hozirgi kunda ta'lim tizimida, masofaviy ta'lim kurslarini yaratishda keng qo'llanilmoqda. Bu dasturning asosiy imkoniyatlaridan biri taqdimotlar yaratishga mo'ljallangan Microsoft PowerPoint dasturi bilan birgalikda qo'llanilishi hisoblanadi. Internet texnologiyalari va masofaviy ta'limning rivojlanishi natijasida Microsoft PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan to'g'ri ko'rish uchun ushbu taqdimotni Flash(swf) yoki HTML5 formatiga o'girish kerak bo'ladi. Bu vazifani esa iSpring Suite dasturi yordamida amalga oshirish mumkin.

iSpring Suite dasturidan ta'lim jarayonida foydalanishning asosiy yo'nalishlari sifatida qo'yidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. PowerPoint dasturidagi barcha effektlarni qoʻllash. iSpring Suite dasturi PowerPoint dasturiga integrallashgan boʻlib, testlar, mashq qildirgichlar va boshqa interaktiv modullardan iborat taqdimotni bir zumda elektron oʻquv kursiga oʻgirish imkonini beradi. Bunda PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimotning barcha xususiyatlari saqlab qolinadi.

2. Mobil qurilmalarni qoʻllash. Turli xil qurilmalar uchun ilovalarni qaytadan yaratishga ehtiyoj tugʻilmaydi. iSpring Suite dasturida yaratilgan kurslar iOS, Android va Windows Phone platformalarida birdek ishlaydi.

3. Turli xil testlar va nazorat topshiriqlarini yaratish imkoniyati. iSpring Suite tarkibiga kiruvchi iSpring QuizMaker testlar muharriri oʻrgatuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi va mustahkamlovchi testlar, shuningdek soʻrovnomalar yaratish imkonini beradi. Testlar muharriri yordamida 14 turdagi testlarni yaratish mumkin. Bular quyidagilar:

- Bir tanlovli test
- Koʻp tanlovli test
- Fikrni tasdiqlash yoki inkor etish

- Qisqa javobni kiritish
- Javobni sonli formatda kiritish
- Toʻgʻri ketma-ketlikda joylashtirish
- Moslikni tanlash
- Bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirish
- Roʻyxatdan tanlash
- Soʻzlarni surib qoʻyish
- Tasvirdagi sohani tanlash
- Obyektlarni surib qoʻyish
- Likert shkalasi
- Esse

4. Microsoft Office da yaratilgan hujjatlardan interaktiv kitoblar (3D kitoblar) yaratish (iSpring Kinetics).

5. Oʻquv materiallarini koʻrgazmali taqdim etish uchun interaktiv shablonlar. iSpring Suite tarkibida turli xil oʻquv holatlariga moslashtirilgan 14 turdagi interaktiv shablonlar mavjud (iSpring Visuals).

6. Audio va video resurslar bilan ishlash, taqdimot shablonlari, kompyuter ekranidagi jarayonlarni yozib olish va boshqa koʻplab imkoniyatlarga ega.

Multimediali elektron oʻquv kurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalar ichida yuqori reytingga ega boʻlgan iSpring dasturi haqida toʻxtalib oʻtamiz.

iSpring Suite dasturi .PPT, .PPTX, .PPS, .PPSX formatdagi fayllarni Flash (.SWF) va HTML5 formatiga konvertatsiyalash imkoniyatini beradigan mualliflik dasturi hisoblanadi.

Dastur orqali foydalanuvchilar Flash-roliklar va YouTube-video resurslarni PowerPoint taqdimot slaydlariga joylashtirishlari mumkin. Xususan:

- Yaratiladigan elektron oʻquv kontentlarni SCORM va TinCan tizimlarga oʻtkazish imkoniyatini beradi, bu esa ixtiyoriy LMS (Learning menegment system) bilan integratsiyalashtirish mumkin degani.
- PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot faylining hajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud

• PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot faylining himoyalanishini ta'minlaydi.

Ushbu paket oʻz ichiga 3 ta dasturiy modulni oladi. Ular yordamida audio, video, interaktiv elementlar va testlar bilan boyitilgan onlayn taqdimot materiallari va oʻquv kurslari, har xil soʻrovnomalar, anketalar, interaktiv testlar, 3D kitob kabi bir qancha elektron nashrlar tashkil etish imkoniyati mavjud.

iSpring Suite elektron nashrlar yaratish paketini ushbu http://www.ispring.ru/ispring-suite manzil orqali yuklab olish mumkin. Dastur avtomatik ravishda MS PowerPoint dasturi menyular satriga oʻrnatiladi va alohida menyuda joylashadi.



1-rasm. iSpring Suite dasturining Power Point dasturi menyusida aks etishi

Nazorat savollari

- 1. iSpring Suite dasturi qanday dasturlari qatoriga kiradi
- 2. iSpring Suite qanday imkoniyatlarga ega
- 3. iSpring Qiuz Maker da necha turdagi testlarni yaratish mumkin
- 4. Elektron oʻquv kurslarini qanday formatlarda saqlash mumkin
- 5. Interaktiv testlarni qaysi formatlarga eksport qilish mumkin?

2.2. ISpring QuizMaker moduli yordamida jismoniy tarbiya fanidan interfaol testlarni yaratish

iSpring dasturlar paketini ishga tushirish quyidagicha amalga oshiriladi: Пуск \rightarrow Все программы \rightarrow iSpring Suite \rightarrow iSpring Suite (2-rasm).



2-rasm. iSpring Suite dasturlar paketini ishga tushirish

Natijada quyidagi dastur oynasi hosil boʻladi

🗱 Быстрый старт			×
🔆 iSpring Suit	e		
Курсы	Создать	Последние открытые	,
Тесты	Новый курс	🛁 Обзор	
Интерактивности			
Диалоги			
Записи экрана			
	60		
Видеоуроки	Форум	Справка Поддерж	ка

3-rasm. iSpring Suite dasturlar paketi modullari

Interfaol testlar yaratish uchun Ispring Quiz Maker moduli tanlanadi va ekranda quyidagi oyna paydo boʻladi. (4-rasm)

🗱 Быстрый старт × Spring Suite Курсы Создать Последние открытые 률 Обзор... Новый тест Тесты Новая анкета Интерактивности Диалоги Записи экрана ► Видеоуроки Справка Форум Поддержка

4-rasm. Ispring Quiz Maker modulining ilk interfeysi

Dastur boshqa elektron testlar yaratish dasturlaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- dasturning ishchi fayli ixtiyoriy kompyuterga koʻchirib qoʻyilishi va ishlashi mumkin;
- juda kam amallar ketma ketligi bajariladi;
- maxsus bilimlar talab etilmaydi;
- testlarning 14 xil turini yaratish mumkin;
- test savollari va javoblariga rasm, formula va video joylashtirish mumkin;
- test natijalari toʻgʻridan toʻgʻri elektron pochtaga joʻnatiladi;
- dastur litsenziyaga ega va ochiq kalitli ekanligi.

Kompyuterga iSpring Suite dasturlar paketi oʻrnatilgach, Ispring Quiz Maker bloki yordamida elektron testlar tuzish imkoniyati mavjud. Testlar bazasi yaratilgach, darsning qaysi qismida foydalanishiga qarab testlar soni va test oʻtkazish vaqti belgilanadi. Interfeys koʻrinishini foydalanuvchi ixtiyoriga koʻra oʻzgartirish mumkin. Tayyor testlar bazasini yaratib boʻlgach, uni lokal tarmoq uchun, global tarmoq uchun, hujjat shaklda (MS Word) yoki LMS tizimi uchun saqlash imkoniyati mavjud. Dasturda yaratilgan elektron testlar bazasi ishchi fayli .swf formatda saqlanadi. Demak, ushbu testlar bazasidan foydalanish uchun kompyuterda Adobe Flash Player dasturi mavjudligi yetarli. Dasturda test savollarining quyidagi koʻrinishlarini yaratish mumkin (5-rasm):

Вопросы	· · · · · · · · · · · · · · · · · · ·		
Выбор одного ответа	Выбор нескольких ответов	Верно/Неверно	аbс Краткий ответ
123 У Числовой ответ	1 2 3	Соответствие	 Заполнить пропуски
————— ———————————————————————————————	Перетаскивание слов	Выбор области	Перетаскивание объектов
 = ○ ● ○ = ○ ○ ● = ● ○ ○ Шкала Ликерта 	Эссе		

5-rasm. Test turlari

- Bir tanlovli test (Выбор одного ответа)
- Koʻp tanlovli test (Выбор нескольких ответов)
- Fikrni tasdiqlash yoki inkor etish (Верно/Неверно)
- Qisqa javobni kiritish (Краткий ответ)
- Javobni sonli formatda kiritish (Числовой ответ)
- To'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish (Последовательность)
- Moslikni tanlash (Соответствие)

- Bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirish (Заполнить пропуски)
- Ro'yxatdan tanlash (Выбор из списков)
- So'zlarni surib qo'yish (Перетаскивание слов)
- Tasvirdagi sohani tanlash (Выбор области)
- Obyektlarni surib qoʻyish (Перетаскивание объектов)
- Likert shkalasi (Ликерт шкаласи)
- Esse

Yangi test yaratish uchun ushbu oynadagi

🔀 Быстрый старт			×
🔆 iSpring Suit	e		
Курсы	Создать	Последние открытые	
Тесты	Новый тест	🛁 Обзор	
Интерактивности	Новая анкета		
Диалоги			
Записи экрана			
Вилеоуроги	(B)		

6-*rasm. Ispring Quiz Maker modulining ilk interfeysi* **Новый тест** boʻlimi tanlanadi. Natijada quyidagi oyna hosil boʻladi.



7-rasm. Ispring Quiz Maker moduli interfeysi

Yangi test uchun savollar guruhini yaratishda yuqorida sanab oʻtilgan test turlarining barchasidan foydalanish mumkin, ya'ni bitta testda biz 14 xil turdagi savollardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlamiz. Bu esa ISpring QuizMaker dasturining boshqa dasturlardan ustun ekanligini koʻrsatadi.

Quyida biz testimiz uchun barcha turdagi savollarni qanday joylashtirishni birma-bir koʻrib chiqamiz.

1. Bir tanlovli test (Выбор одного ответа).

Ви turdagi savolni qo'shish uchun dasturning Главная menyusidagi Вопросы tugmasini bosamiz va hosil bo'lgan ro'yxatdan Выбор одного ответа test turini tanlaymiz.

Casaras C	HTB I I U × X2	Карана Симерссылка Д ² Уравнение № Символ Встав	 — Рисунок — Видео ■ Видео ■ Визк ~ ка 	Свойства Плеер Тест	Просмотр Публикация	
United in the second	краткий ответ Краткий ответ Алолинть пропуски Перетасивание объектое	Тест не содержит	вопросов.	. Добавьте ног	ые вопросы.	

8-rasm. Bir tanlovli test

Bu test turida javob variantlarini keraklicha "Добавить" tugmasi yordamida koʻpaytirish mumkin. Savolga tasvir, ovozli fayl va video fayl qoʻshish, javob variantlariga tasvirli fayllarni ilova qilish mumkin. "Удалиь" tugmasi yordamida javob variantlarini oʻchirish mumkin. (9-rasm)

Зопрос «Ві	ыбор одного ответа»	
<u>Atlet so'zi</u>	ganday ma'noni anglatadi.	Savolga tasvir, video va ovoz qoʻshish
варианты о	ответов	
Верный	Вариант ответа	
۲	Kurashchi	×
0	Jangchi	X Isush upriortioni
0	Yuguruvchu	o'chirish
0	Polvon	×
	Введите вариант ответа	
	Javob variantlarini qoʻshish	Toʻgʻri javob uchun maksimal ball
Обратная о	связь и ветвление	
	Обратная связь	Ветвление Бал
Верно:	Вы выбрали верный ответ.	··· → 10
Неверно:	Вы выбрали неправильный ответ.	··· -> 0

9-rasm. Bir tanlovli test savoli interfeysi

Обратная связь и ветвление boʻlimida biz toʻgʻri javob uchun maksimal ballni hamda notoʻgʻri javob uchun ballni kiritishimiz mumkin. Shuningdek teskari aloqa uchun foydalanuvchiga koʻrsatiladigan matnlarni oʻzgartirishimiz mumkin.

Обратная сі	вязь и ветвление		
	Обратная связь	Ветвление	Баллы
Верно:	Вы ответили верно.	 →	10
Неверно:	Вы ответили неверно.	 →	0

10-rasm.

Bu matnlar dastur versiyasiga bogʻliq ravishda rus tili yoki ingliz tilida chiqariladi. Yuqoridagi rasmda koʻrsatilgan **Вы ответили верно** hamda **Вы ответили неверно** jumlalarini biz oʻzbek tilidagi ixtiyoriy jumlalarga oʻzgartirishimiz mumkin (masalan, Javob toʻgʻri va Javob notoʻgʻri).

Обратная с	зязь и ветвление		
	Обратная связь	Ветвление	Баллы
Верно:	Javob toʻgʻri	 →	10
Неверно:	Javob noto'g'ri	 →	0
певерно.	23400 1010 0 11	-	U

11**-**rasm.

Bu matnlar foydalanuvchi savolga javob bergandan soʻng quyidagi koʻrinishda chiqariladi (12-rasm).



12-rasm.

2. Koʻp tanlovli test (Выбор нескольких ответов): bunda savolga tegishli bir yoki bir necha javob variantini belgilash mumkin. Bu test turida ham javob variantlarini keraklicha "Добавить" tugmasi yordamida

koʻpaytirish mumkin. Savolga tasvir, ovozli fayl va video fayl qoʻshish, javob variantlariga tasvirli fayllarni ilova qilish mumkin. "Удалиь" tugmasi yordamida javob variantlarini oʻchirish mumkin. (13-rasm)

<u>Олимпия</u> киритилг	<u>ўйинлари дастурига спортча юришнинг эркаклар учун кайси масофалари.</u> ан?		
рианты	ответов		
ерный	Вариант ответа		
~	20, 50 км		×
	10, 20, 30 км		×
	20, 30 км		×
~	5, 25 км		×
	Введите вариант ответа		
natuag		Ветрление	Баллы
ратная	Обратная связь		DOVINDI
ратная ерно:	Обратная связь Вы ответили верно	→	10

13-rasm. Koʻp tanlovli test savoli interfeysi

3. Fikrni tasdiqlash yoki inkor etish testi (Верно/Неверно): Bu savol turida javob faqat "toʻgʻri" yoki "notoʻgʻri" boʻlishi mumkin, ya'ni boshqa javob variantlarini qoʻshib boʻlmaydi. (14-rasm)

жисмони	й тарбия дарсларида харакатли ўйинлар киритилган		
арианты	ответов		
Верный	Вариант ответа		
۲	Тўери		
0	Нотўғри		
братная	связь и ветвление		
братная	связь и ветвление Обратная связь	Ветвление	Баллы
братная Верно:	связь и ветвление Обратная связь Вы ответили верно.	 Ветвление →	Баллы 10

14-rasm. Fikrni tasdiqlash yoki inkor etish test savoli interfeysi

4. Qisqa javobni kiritish (Краткий ответ): Bu test turida javob variantini test topshiruvchi klaviaturadan kiritadi. Ammo tuzuvchi barcha kiritilishi mumkin boʻlgan javob variantlarini avvaldan kiritib qoʻyishi kerak. Javob variantiga tasvir qoʻshish mumkin emas. (15-rasm)

Sportena y	<u>urish qanday tur hisoblanadi</u> . Javobingizni kiriting		
опустимь	ле варианты ответов		
Допустимь	ий ответ		
Siklik			×
Введите	е вариант ответа		
братная с			
братная с	ала и ветвление Обратная связь	Ветвление	Баллы
братная с Верно:	з вязь и ветвление Обратная связь Вы выбрали верный ответ.	Ветвление →	Баллы 10

15-rasm. Yopiq test koʻrinishidagi savol interfeysi

Bu turdagi test savoli foydalanuvchiga quyidagi koʻrinishda chiqariladi.



16-rasm. Yopiq test koʻrinishidagi savolning koʻrinishi

Foydalanuvchi savolga javobni klaviatura orqali kiritib **Ответить** tugmasini bosadi.

5. Javobni sonli formatda kiritish (Числовой ответ).

Bu test turida javob variantini test topshiruvchi klaviaturadan sonli koʻrinishda kiritadi. Test tuzuvchi javob variant uchun kerakli shartlarni koʻrsatadi. Javob variantiga tasvir qoʻshish mumkin emas.

Shartlar sifatida quyidagilarga ruxsat beriladi:

Равно – Javob varianti koʻrsatilgan qiymatga teng boʻlishi kerak

Допустимые ч	исловые значен	ия			
Допустимое з	начение				
Значение:	Равно	~	200	* *	×

Между — Javob varianti koʻrsatilgan oraliqdagi qiymatlardan biriga teng boʻlishi kerak

Д	опустимые ч	исловые знач	ения					
	допустимое зі	начение						
	Значение:	Между	~	0	÷	и 200	¢	×

Больше чем — Javob varianti koʻrsatilgan qiymatdan katta boʻlishi kerak

Ļ	1опустимые ч	исловые значения				
	Допустимое зн	начение				
	Значение:	Больше чем	~	0	* *	×

Больше или равно — Javob varianti koʻrsatilgan qiymatdan katta yoki teng boʻlishi kerak

д	опустимые ч	исловые значения				
	допустимое з	начение				
	Значение:	Больше или равно	~	200	÷	×

Меньше чем — Javob varianti koʻrsatilgan qiymatdan kichik yoki teng boʻlishi kerak

цопустимые ч	исловые значения				
Допустимое з	начение				
Значение:	Меньше чем	~	200	↓	×

Меньше или равно — Javob varianti ko'rsatilgan qiymatdan kichik bo'lishi kerak

Допусти	мые числовые значения			
Допусти	мое значение			
Значе	ение: Меньше или равно	∼ 200	* *	×

Не равно — Javob varianti ko'rsatilgan qiymatga teng bo'lmasligi kerak

Допустимые числовые значен	ия	
Допустимое значение		
Значение: Не равно	✓ 200 [↑]	×

Yopiq inshoa kiriting	tlarda yugurish yoʻlagining uzu	nligi necha	metrni tashkil etadi? Javobingizni sonli koʻrir	nishida		
(опустимые	числовые значения					
Допустимое	значение					
Значение:	Равно 🗸	200	* *			×
	Равно					
	Между					
	Больше чем					
	Больше или равно					
	Меньше чем					
	Меньше или равно					
	Не равно					
братная свя	вы и ветвление					
	Обратная связь				Ветвление	Баллы
Верно:	Вы выбрали верный ответ.				→	10

17-rasm. Javobni sonli formatda kiritish turidagi savol interfeysi

6. To'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish (Последовательность).

Bu test turida test topshiruvchi javob variantlarini toʻgʻri ketmaketlikda joylashtirishi talab etiladi. Javoblarni shakllantirish jarayonida biz javoblarni toʻgʻri ketma-ketlikda kiritishimiz kerak. Test topshirish jarayonida esa ushbu javoblar ixtiyoriy tartibda test topshiruvchiga koʻrsatiladi. Javoblarni rasm koʻrinishida kiritishga ruxsat beriladi (18rasm).

XXX <u>yozgi</u> joylashritin	olimpiada oʻyinlarida eng koʻp medallarni goʻlga kiritgan davlatlarni toʻgʻri ketma-ketlikda g.	l		
ерный по	рядок			
Вариант от	вета			
AQSh				×
Xitoy				×
Buyuk b	ritaniya			×
Введите	е вариант ответа			
братная с	вязь и ветвление			
	Обратная связь		Ветвление	Баллы
			->	10
Верно:	вы выорали верный ответ.			10

18-rasm. Toʻgʻri ketma-ketlikda joylashtirish turidagi savol interfeysi

🗐 Спис	ок вопросов	Вопрос 4 из б Набрано баллов: 0 из б
XX da	X yozgi olimpiada o'yinlarida eng ko'r vlatlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylasl	o medallarni qo'lga kiritgan nriting.
1.	Xitoy	
2.	Buyuk britaniya	
3.	AQSh	
		ответить

19-rasm. Test jarayonida ushbu savolning koʻrinishi

7. Moslikni tanlash (Соответствие)

Bu test turida test topshiruvchi chap tomondagi tushunchalarga oʻng tomondagi toʻgʻri variantni mos qoʻyib joylashtiradi. Savol va javoblar uchun rasmlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

<u>Quyidagi t</u> i	<u>ushunchalarga</u> mos <u>javoblarni tanlang</u>			
рные сос	ответствия			
элемент		Соответствие		
Basketbo	ol gachon va gayerda paydo boʻlgan	1894 <u>vil AQShda</u>		×
Voleybol	gachon va gayerda paydo bo'lgan	1895 <u>vil AQShda</u>		×
Gandbol	gachon va gayerda paydo bo'lgan	1898 <u>vil Daniyada</u>		×
Введите	? элемент	Введите соответствие		
Дополни	тельные соответствия			
Введите	е соответствие			
братная с	вязь и ветвление			
	Обратная связь		Ветвление	Баллы
Верно:	Вы выбрали верный ответ.		 →	10

20-rasm. Moslikni tanlash turidagi savol interfeysi

:≡ Список вопросов	Вопрос 6 из 8 Набрано баллов: 0 из 80
Quyidagi tushunchalarga mo	os javoblarni tanlang
Voleybol qachon va qayerda paydo bo'lgan	C 1894 yil AQShda
Gandbol qachon va qayerda paydo bo'lgan	C 1895 yil AQShda
Basketbol qachon va qayerda paydo bo'lgan	C 1898 yil Daniyada
	ответить

21-rasm. Test jarayonida ushbu savolning koʻrinishi

8. Bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirish (Заполнить пропуски)

Bunda savol tarkibidagi boʻsh joylarga kerakli javoblarni klaviatura yordamida kiritiladi. Ya'ni toʻgʻri javobni koʻrsatilgan joyga yozish talab etiladi. Bunda test tuzuvchi tomonidan boʻsh joylar bitta yoki bir necha joylashtirish mumkin.



22-rasm. Bosh joylarni toʻldiring koʻrinishidagi savol interfeysi

9. Roʻyxatdan tanlash (Выбор из списков): savolning boʻsh qismlarida bir nechta javoblar variantlari keltirilgan boʻladi, test topshiruvchi javob variantlardan birini tanlash orqali boʻsh qoldirilgan joylarni toʻldiradi.

Керакли ж	авоб вариантларини танланг						
екст с про	пусками			🐑 Вставить прог	іуск	🗙 Удалить	пропус
Табиатнин	г табий соғломлаштирувчи омилларига	a Ky	/ёш	🗸 , Хаво 🗸 Сув	~]	киради.	
		:	۲	Қуёш	×		
		1	\bigcirc	Хаво	×		
		:	0	Сув	×		
				Добавить слово			
братная с	вязь и ветвление						
	Обратная связь					Ветвление	Баллы
Верно:	Вы ответили верно.					→	10
						1	0

23-rasm. "Javoblari keltirilgan savol" koʻrinishidagi savol interfeysi

10. Soʻzlarni surib qoʻyish (Перетаскивание слов)

Bu test turida test topshiruvchi matndagi boʻsh joylarga berilgan soʻzlardan mosini surib qoʻyish orqali matnni toʻldirishi talab etiladi (24-rasm).

екст с пропусками Ecraвить пропуск X Удалить пропу XXXI уозді olimpiya o'yinlarida Oʻzbekiston terma jamoasi 2 ta kumush 4 ta oltin ya 7 ta bronza medalni qoʻlga kiritgan. Осполнительные слова Добавить слово	Bo'sh joyla	<u>ni</u> mos <u>soʻzlar bilan toʻldiring</u> .				
ХХХХ уоzgi olimpiya oʻyinlarida Oʻzbekiston terma jamoasi 2 ta kumush 4 ta oltin ya 7 ta bronza medalni qoʻlga kiritgan. ополнительные слова Добавить слово	екст с про	пусками	街 Вставить пр	опуск	Х Удалить	пропуси
ополнительные слова Добавить слово братная связь и ветвление	XXXi yozgi kiritgan	olimpiya oʻyinlarida Oʻzbekiston terma jamoasi 2 ta kumush .	4 ta oltin ya 7 ta	bronza	medalni go	'lga
братная связь и ветвление						
братная связь и ветвление	ополните Добавити	льные слова				
()DEDATURA CRASI	ополните. Добавите	тьные слова				
Обратная связь	ополните Добавите Обратная с	тьные слова . слово вязь и ветвление				
	Цополните Добавити Обратная с Верно:	тьные слова с слово в язь и ветвление Обратная связь Вы выбрали верный ответ.			Ветвление	Баллы 10

24-rasm. Soʻzlarni surib qoʻyish turidagi savol interfeysi

Test bajarish jarayonida bu turdagi savol quyidagi koʻrinishda boʻladi.

🖅 Список вопросов	Вопрос 1 из 1 🔰 Набрано баллов: 0 из 10
Bo'sh joylarni mos so'zlar bilan to'ldirir	ng.
XXXi yozgi olimpiya o'yinlarida O'zbekiston te	rma jamoasi 2 ta 4 ta
va 7 ta medalni qo'lga	kiritgan.
oltin kumush bronza	
	ответить

25-rasm.

11. Faol hududni aniqlovchi savol (Выбор области). Bu savol turida rasm beriladi va ushbu rasmning kerakli qismi javob sifatida belgilanadi. Javob berish jarayonida sichqoncha yordamida kerakli qism tanlanadi.



26-rasm. "Faol hududni aniqlovchi savol" koʻrinishidagi savol interfeysi



27-rasm. Test jarayonida koʻrinishi

Testlar bazasini sozlash

Testlar bazasiga barcha savollarni kiritib boʻlinganidan soʻng, bajarilgan ishni elektron shaklda saqlash kerak boʻladi. Tayyor boʻlgan elektron testni saqlashdan oldin ayrim sozlashlarni bajarish kerak. Chunki bu sozlashlar elektron testdan foydalanilayotgan vaqtda katta ahamiyatga ega. Testlar bazasini sozlash uchun Главная menyusidagi Свойства bandi tanlanadi. Natijada quyidagi oyna hosil boʻladi (28-rasm).

🛃 Свойства теста		×
Основные свойства	🗔 Основные свойства теста	
Свойства вопросов	Название и размеры	
Список вопросов	Название теста: Тест	
Отправка отчета	Размер слайда: 720х540 (4:3) ∨ Ширина: 720 Высота: 540 Сохранять пропорции	
	Ограничение по времени	
	✓ Ограничить тест по времени: 60:00 мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс мм:сс ми:	
	Сохранить Отмена	

28-rasm. Test bazasini sozlash oynasi

Основные свойства bo'limi

Bu bo'limda elektron testga nom berish (Название теста), test oynasining o'lchamlarini o'rnatish (Размер слайда) hamda testni bajarishning maksimal vaqtini o'rnatish (Ограничить тест по времени) mumkin (28-rasm).

Оценивание теста boʻlimi

Bu boʻlimda testda baholash turi oʻrnatish ya'ni oʻtish balli boʻyicha baholash (По проходному баллу) va baholamaslikni (Не оценивается), testdan oʻtish shartlarini foizlarda (В процентах) yoki ballda (В баллах) oʻrnatish mumkin (29-rasm).

Основные свойства Оценивание теста Свойства вопросов Список вопросов Оп по проходному баллу Оправка отчета Оп	
Оценивание теста С Свойства вопросов Тип оценивания Список вопросов По проходному баллу Отправка отчета Не оценивается	
Свойства вопросов Тип оценивания Список вопросов По проходному баллу Отправка отчета Не оценивается	
Список вопросов По проходному баллу Отправка отчета Не оценивается	
Отправка отчета Оне оценивается	
Условие прохождения	
Оценивать тест: В процентах	
Проходной база: 80 * %	
Сохранить Отм	лена

29-rasm. Оцениване теста bo'limi

Свойства вопросов bo'limi

Bu boʻlimda savollarning xususiyatlarini sozlanib, quyidagi parametrlardan iborat

- ✓ Баллы за правильный ответ to'g'ri javob uchun ball
- ✓ Штраф за неправильный ответ noto'g'ri javob uchun jarima
- ✓ Применять штраф для неотвеченных вопросов javob berilmagan savollar uchun jarimani qo'llash yoki qo'llamaslik
- ✓ Количество попыток testda urinishlar sonini belgilash
- ✓ Ограничить время ответа har bir savolga javob berish uchun vaqt chegarasini oʻrnatish
- ✓ Перемешивать варианты ответов javob variantlarini avtomatik tarzda aralashtirish
- ✓ Принимать частичные ответы koʻp tanlovli testlarda qisman javob berilsa ham javobni qabul qilish
- Разрешить пропускать анкетные вопросы Anketa savollarini o'tkazib yuborishga ruxsat berish

- Показать обратную связь для оцениваемых вопросов baholanadigan savollar uchun teskari aloqani koʻrsatish
- ✓ Показать обратную связь для анкетных вопросов anketa savollar uchun teskari aloqani koʻrsatish
- ✓ Верно toʻgʻri javob berilganda koʻrsatiladigan matn
- ✓ Неверно notoʻgʻri javob berilganda koʻrsatiladigan matn
- ✓ Повторная попытка qayta urinishda koʻrsatiladigan matn
- ✓ Отвечено javob berilganda koʻrsatiladigan matn

Yuqorida keltirilgan sozlashlar amalga oshirilgandan keyin Применить ко всем (Barcha savollar uchun qoʻllash) tugmasi bosiladi.

🗹 Свойства теста		×
Основные свойства Оценивание теста	Ед Свойства по умолчанию для новых вопросов	
Свойства вопросов	Оценивание	
Список вопросов	Баллы за правильный ответ: 10 💲	
Отправка отчета	Штраф за неправильный ответ: 0 🗘	
	🗌 Применять штраф для неотвеченных вопросов	
	Ограничения	
	Количество попыток: 1 —	
	Ограничить время ответа: 01:00 🗘 мм:сс	
	Перемешивать варианты ответов	
	Принимать частичные ответы	
	Разрешить пропускать анкетные вопросы	
	Обратная связь	
	🗹 Показывать обратную связь для оцениваемых вопросов	
	Показывать обратную связь для анкетных вопросов	
	Верно: Вы выбрали верный ответ.	
	Неверно: Вы выбрали неправильный ответ.	
	Повторная попытка: Вы выбрали неправильный ответ. Повторите попытку.Осталось попыток: %ANSWER	
	Отвечено:	
	Применить ко всем	
	Сохранить Отмена	

30-rasm. Свойства вопросов bo'limi

Список вопросов bo'limi

Testda savollar roʻyxatini shakllantirishda quyidagi parametrlardan foydalanish mumkin:

✓ Вопросы из всех групп теста – test savollari barcha savollar guruhidan shakllantiriladi

- ✓ Вопросы из нескольких случайных групп test savollari bit nechta savollar guruhidan tasodifiy ravishda shakllantiriladi
- ✓ Вопросы из выбранных групп test savollari koʻrsatilgan savollar guruhidan shakllantiriladi
- ✓ Перемешивать вопросы в тесте testda savollarni aralashtirishga ruxsat berish yoki bermaslik.

🗹 Свойства теста				×
Основные свойства Оценивание теста	Формирование списка вопросов			
Свойства вопросов	Какие вопросы попадут в тест			
Список вопросов	Вопросы из всех групп теста			
Отправка отчета	 Вопросы из нескольких случайных групп: 1/1 Вопросы из выбранных групп: 			
	Название группы	Случайная выборка	Количество вопросов	
	🔽 Группа вопросов 1		11	
		Сохрани	Отмен	a

31-rasm. Список вопросов boʻlimi

Test bazasini yaratish jarayonida bitta faylda bir nechta savollar guruhini yaratish mumkin. Yangi test yaratilgan odatda bitta savollar guruhi yaratilib unga dastur tomonidan Γ руппа вопросов 1 nomi beriladi.



32-rasm. Savollar guruhini yaratish

Yangi savollar guruhini yaratish uchun Главная menyusidagi Группа вопросов tugmasi bosiladi. Har bir savollar guruhi nomini oʻzgartirish mumkin.



33-rasm. Savollar guruhi nomini oʻzgartirish

Отправка отчета bandi

Bu boʻlimda test natijalarini oʻqituvchiga yoki test topshiruvchiga elektron pochta orqali joʻnatishni sozlash parametrlari joylashgan.

🗹 Свойства теста		×			
Основные свойства Оценивание теста	👰 Автоматическая отправка отчета с результатами				
Свойства вопросов	Отправка отчета на email				
Список вопросов	Отправлять отчет инструктору: Перечислите email адреса через запятую				
Отправка отчета	Отправлять, если тест: Пройден или Не пройден ✓ Включать в отчёт ответы пользователя Отправлять отчёт тестируемому Включать в отчёт: Ответы пользователя Правильные ответы Текст обратной связи Заголовок письма Аругое Отправить результаты на сервер: Отправить результаты на сервер: Выполнить JavaScript Настроить				
	Сохранить Отмена				

34-rasm. Отправка отчета bandi

Barcha sozlashlarni bajargandan soʻng Сохранить tugmasi bosiladi. Endi bemalol elektron testni saqlash mumkin. Buning uchun dasturning yuqori chap tomonida joylashgan Публикация tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi oyna paydo boʻladi.



35-rasm. Testni saqlash oynasi

Bu oynada elektron test dasturini saqlash kerak bo'lgan papkani, fayl nomini, fayl tipini va dastur oynasi o'lchamini ko'rsatish mumkin. Fayl tipi .exe deb belgilanganda, avtomatik ravishda .swf formatda elektron test saqlanadi. Shuning uchun bu elektron testdan foydalanish uchun Adobe Flash Player dasturi o'rnatilgan bo'lishi shart. So'ngra Опубликовать tugmasi bosiladi. Dastur faylni avtomatik ravishda ko'rsatilgan joyga saqlaydi.

Nazorat savollari

- 1. iSpring Qiuz Maker da necha turdagi testlarni yaratish mumkin
- 2. Interfaol testlarni qaysi formatlarga eksport qilish mumkin?
- 3. Interfaol testlarda qanday baholash mezonlari qoʻllaniladi?
- 4. Teskari aloqa nima?

2.3. iSpring Suite dasturi yordamida interfaol elementlarni yaratish

iSpring Suite Visuals(Интерактивность) moduli yordamida turli xil interfaol elementlarni yaratish mumkin. iSpring Suite Visuals moduli quyidagi turdagi interfaol elementlarni yaratish imkonini beradi:

Новая интерактивность - iSpring Vi	isuals		×X
Выберите тип и	нтерактивности		
2			
Шаги	Временная шкала	Замкнутый процесс	Процесс
Аннотирование			
Маркированное изображение	Описываемое изображение	Активная область	
Иерархия			
			Ţ
 Посмотреть примеры ин 	терактивностей		Создать интерактивность
Новая интерактивность - iSpring V	isuals		×
Новая интерактивность - iSpring V Иерархия	isuals		×
Новая интерактивность - iSpring V Иерархия	isuals		×
Новая интерактивность - iSpring V Иерархия Городо Сородо Сородо Круговая диаграмма	isuals		×
Новая интерактивность - iSpring V Иерархия Бруговая диаграмма Каталог	isuals		×
Новая интерактивность - iSpring V Иерархия Городован систрания Круговая диаграмма Каталог Каталог Глоссарий	isuals Пирамида Пирамида Медиакаталог	Р ПОРОС-ОТВЕТ	Акхордеон
Новая интерактивность - iSpring V Иерархия Груговая диаграмма Каталог Глоссарий	isuals Пирамида Пирамида Кедиакаталог	р р р р р р р р р р с-Ответ	Х
Новая интерактивность - i Spring V Иерархия Груговая диаграмма Каталог Глоссарий Глоссарий	isuals Пирамида Пирамида Медиакаталог	Bonpoc-Orser	Аккордеон

Vaqt shkalasi (Временная шкала)

Bu turdagi interfaol elementlar biror vaqt oraligʻida sodir boʻlgan voqea hodisalarni tizimlashtirish maqsadida qoʻllaniladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida bu elementdan biror bir sport turini rivojlanish tarixini tizimlashtirish va oʻquvchilarga taqdim etishda foydalanish mumkin. Misol uchun zamonaviy olimpiya oʻyinlari tarixini Vaqt shkalasi yordamida tasvirlashni koʻrib chiqamiz. Buning uchun iSpring Suite Visuals(Интерактивность) modulini ishga tushirgandan soʻng **Временная шкала (Vaqt shkalasi)** elementini tanlaymiz. Natijada quyidagi oyna hosil boʻladi.

💿 🕒 📇 🧠 🤭 🗧 Временная шкала* -	iSpring Visuals			– 🗆 X
🔲 🔻 Временная шкала Формат текст	а Вставка Помощь			
Гиперссылк Рисунок Видео Звук О Символ	а Совекты Персонажи Объекты	росмотр		
Изображения Мультимедиа Текст	Библиотека контента П	бликация		
События Поиск	O Tenwog 1			
Введение		heprod -	httprog 5	
🖂 Период 1		Jonuos 1		
Событие 1		Териод Т		
∨ Период 2	В	ведите описание для периода		
Событие 2				
∨ Период 3				
Событие з				
Заключение				
				1

Biz zamonaviy olimpiya oʻyinlarini shartli ravishga 3 davrga boʻlib olamiz:

- ✓ I jahon urushigacha boʻlgan davr
- ✓ I jahon urushidan II jahon urushigacha boʻlgan davr
- ✓ II jahon urushidan hozirgacha boʻlgan davr

Natijada bizda 3 ta davr (Период) hosil boʻladi. Har bir davr oraligʻida oʻtkazilgan olimpiada oʻyinlarini Hodisalar (События) elementni orqali tavsiflashimiz mumkin.

1-davr uchun sarlavha sifatida 1896-1916 yillarni kiritamiz. Buning uchun oynaning chap tomonida joylashgan Период 1 yozuvini tanlaymiz hamda slaydda davr nomini kiritamiz

🔍 🖹 🧀 🖡	∃ S сд ∓ Врем	іенная шкала* - iSj	pring Visuals								-	×
10 × 6	Зременная шкала	Формат текста	Вставка	Помощь								
Рисунок	[] ↓)) Видео Звук	Сиперссылка П Уравнение О Символ Такст	Персонажи	🛃 Фоны 🔮 Объекты	Просмотр							
изооражени	я мультимедиа	Tekct	риолиоте	а контента	пуоликация							
Событи	я		\mathbf{O}		0		-0	0	0			
Поиск			1896	-1916			Период 2		Перио	д3		
🗌 Введ	ение											
~ 1896	-1916				1000	010						
Coõe	атие 1				1896-	1916						
√ Пери	юд 2				1							
Coóe	тие 2											
∨ Пери	10д 3											
Собы	тие 3											
🗌 Закл	ючение											

Bu davr oraligʻida 5 marotaba olimpiya oʻyinlari oʻtkazilganligi sababli yana

4 ta hodisa (Событие) qoʻshamiz. Buning uchun Временная шкала menyusidan Добавить событие tugmasini bosamiz. Natijada bizning vaqt shkalamiz quyidagi koʻrinishga keladi.



Endi har bir hodisa uchun ma'lumotlarni kiritib chiqamiz. Buning uchun kerakli hodisani tanlab unga mos slayd sarlavhasi va unga tegishli ma'lumotlarni kiritamiz. Slaydga ma'lumotlar joylashtirishda rasm, video, ovoz va boshqa turdagi elementlardan foydalanish mumkin.

🔲 🎦 🖆 🗐 🕤 🤿 🗧 Временная шкала - iSpring Visuals	- o x
Временная шкала Формат текста Вставка	Помощь
i 🗿 🍬 🛍 i 🖓 i 🏘 i 🗉 🗉	EE E E 🛞 📕 🕨 🌐
Добавить Добавить Удалить Цвет Стиль В Л	<u>U</u> ды ⊢ х ₀ х ² Свойства Цвета Просмотр Публикация
Временная шкала Т	екст Интерактивность Публикация
События	
Поиск	
18	36-1916 1916-1944 1948 yildan hozirgacha
1905-1016	
1995	1000
1900	1900
1904	
1908	II olimpiya o'yinlari
1912	
1916-1944	O'tkazilgan davlat - Fransiya
Событие 2	s ,
 1948 vildan bozirgacha 	O'tkazilgan shaxar - Parij
Событие 3	
Заключение	

Har bir davr va hodisa uchun ma'lumotlar joylashtirib bo'lingandan so'ng, vaqt shkalasini saqlash mumkin. Buning uchun **Временная шкала** menyusidagi **Публикация** tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi.

🤘 Публикация интерактивности			×			
iSpring Visuals						
🛄 Мой компьютер	Публикация на М	1ой компьютер				
	Название проекта:	Временная шкала				
iSpring Space	Папка:	C:\Users\DEFENDER\Documents ~ 0630p				
iSpring Learn	Формат:	нтмі 5 (для компьютера и мобильцых устройств)				
	Размер в браузере:	Использовать исходный размер слайда интерактивности (
< сдо	Качество:	Для стандартного просмотра				
	Режим доступности:	Выключен				
		Опубликовать Отмена	9			

Ви yerda Название проекта qismida fayl nomi kiritiladi, Папка qismida fayl saqlanadigan papka tanlanadi va Опубликовать tugmasi bosiladi.

iSpring Suite Visuals(Интерактивность) moduli yordamida

Nazorat savollari:

- 1. Interfaol elementlar ISpring dasturining qaysi moduli yordamida yaratiladi
- 2. Interfaol elementlar qanday turdagi ma'lumotlar uchun qo'llaniladi
- 3. Vaqt shkalasi nima?
- 4. Glossariy nima?

Xulosa

Bugungi kunda har qanday darajadagi ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarining kiritilishi jahon ta'lim jarayoni rivojlanishining eng barqaror tendensiyalaridan biridir. Barcha axborot kanallari orasida vizual va audio axborotlar eng samarali hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta'lim sohasida qo'llash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Zamonaviy rivojlanayotgan axborot jamiyati sharoitida oʻquvchilarning kompyuterlarni tobora erta egallashi obyektiv zaruriyatga aylanib bormoqda. Dars jarayonida interfaol metodlar va topshiriqlardan foydalanish oʻquv jarayonini sezilarli darajada boyitadi, uni yanada gʻayratli va samarali qiladi. Axborot texnologiyalari oʻquvchining bilish qobiliyatini rivojlantirishni eng toʻliq va muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi, yangi ma'lumotlarga barqaror qiziqishni shakllantirishni ta'minlaydi.

Uslubiy qoʻllanmada interfaol ta'lim texnologiyalari, jismoniy tarbiya darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishning afzalliklari, jismoniy tarbiya fanidan interfaol topshiriqlarni yaratish texnologiyalari va ularning dasturiy ta'minoti bayon qilindi. iSpring Suite dasturidan foydalanib interfaol testlar va topshiriqlar, interfaollikni oʻz ichiga olgan oʻquv materiallarini yaratish jarayonlari koʻrsatib oʻtildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr O'RQ -637-son .

2. Oʻzbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish toʻgʻrisida"gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr OʻRQ-560-II-son.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi PF-5349-sonli Farmoni.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz – T.: "Oʻzbekiston". 2017. – 592 b.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021yil

6-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

7. Davronov R.R. "Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari". Uslubiy qoʻllanma. /Oʻqituvchilar uchun uslubiy qoʻllanma. "LidirPress". 2019, 56 b.

8. Рязанова З.Г., Янов В.В. Инфомационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.

9. Сабирова Д.А. Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие - Т: ТГЭУ, 2012 г. 180 стр.

10. Tolametov A.A., Maxarov T.A., Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish", "LidirPress". 2019. 55 b.

Internet resurslari

13. www.wikipedia.org

^{11.&}lt;u>www.ziyonet.uz</u>

^{12.&}lt;u>www.ispring.ru</u>

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	5
1.1. Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi	
oʻrni va imkoniyatlari	5
1.2. Jismoniy tarbiya darslarida faol va interfaol oʻqitish	
usullaridan foydalanish	6
II BOB. JISMONIY TARBIYA FANIDAN INTERFAOL	
TOPSHIRIQLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI	9
2.1. iSpringSuite dasturi haqida umumiy ma'lumotlar	9
2.2. ISpring QuizMaker moduli yordamida jismoniy tarbiya	
fanidan interfaol testlarni yaratish	11
2.3. iSpring Suite dasturi yordamida interfaol elementlarni	
yaratish	35
XULOSA	40
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	41

A.K.ISHONKULOV

JISMONIY TARBIYA FANIDAN INTERFAOL TOPSHIRIQLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

USLUBIY QO'LLANMA

"QAMAR MEDIA" NASHRIYOTI

Muharrir: Muhammad Sobir **Musahhih:** Osima Sobirjon qizi

"Qamar media" nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani Qoʻyliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi:10.06.2021-yil. Bosishga ruxsat etildi:15.06.2021-yil. Bichimi 60x84 ^{1/16}, "Times New Roman" garniturasi. Bosma tabogʻi 2,75 Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2021/40 Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.